

23. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник для вузов. 3-е изд. СПб.: Питер, 2008.
24. Виханский О.С., Наумов А.И. Менеджмент: Учебник для вузов по экон. спец. и направл. Третье изд. М.: Гардарики, 2008.
25. Герчикова И.Н. Менеджмент: Учебник. 4-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012.
26. Дафт Р. Менеджмент. 6-е изд./ Пер с англ. - СПб.: Питер, 2007.
27. Кравченко А.И. История менеджмента: Учебное пособие для вузов. - 7-е изд. - М.: Академический Проект; Альма Матер, 2012.
28. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. - М.: Дело, 2012.
29. Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В. Плахова, Т.М. Анурина, С.А. Легостаева и др. - М.: КНОРУС, 2007.
30. Семенов А.К., Набоков В.И. Основы менеджмента: <<Дашков и К>, 2010. М.: ИТК
31. Фатхутдинов Р.А. Стратегический менеджмент- М.: АО «Бизнес-школа <<Интел-Синтез>, 2008.
32. Гулин. В.Н. Информационный менеджмент: Учебный комплекс. - Минск: Современ. шк., 2009.
33. Ламбен. Ж.Ж., Чумпитас Р., Шулинг И. Менеджмент, ориентированный на рынок. 2-е изд. /Пер. с англ. Под. ред. В.Б. Копчанова.- СПб.: Питер, 2008.
34. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб Питер, 2009.
35. Ермаков В.П., Макиев З.Г. Менеджмент для студентов вузов. Изд. 5-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2008.
36. Коноплев С.П., Коноплева В.С. Менеджмент продаж: Учеб. пособ. - М.: ИНФРА-М, 2009.
37. Гончаренко Л.П. Менеджмент инвестиций и инноваций: учебник. М.: КНОРУС, 2009.
38. Пивоваров С.Э., Тарасевич Л.С. Международный менеджмент: Учебник. 4-е изд.- СПб.: Питер, 2008.
39. Иваненко А.Г. Инновационный менеджмент: учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2009. 2010.
40. Стратегический менеджмент. / Под ред. А.Н. Петрова.- СПб.: Питер-
41. Карлик А. Е., Рогова Е.М., Тихонова М.В., Ткаченко Е.А. Инвестиционный менеджмент: Учебник. СПб.: Вернера Регена, 2012.
42. Хожиахмедов Ф., Умаров Х., Яхьяева И.Н. Сифат менежменти. - Т.: Дарслик. ТТЕСИ, 2012.-200 б.

08.00.13-“Менежмент” ixtisosligi bo'yicha yozma savollar
РЎЙЎАТИ

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**



**STAJYOR-TADQIQOTCHILIK, TAYANCH DOKTORANTURA VA
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI**

DASTURI

08.00.13 - Menejment

Toshkent – 2025 y.

Dastur Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va 2025-yil "4" sentyabrdagi "2" – sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

- Ismailov A.M. – TAQU "Menejment" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
- Nurimbetov R.I. – TAQU "Menejment" kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Taqrizchilar:

- Djurabayev O.Dj. – TDIU "Moliya va raqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
- Allaeva G.J. – TDTU "Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti" kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Ushbu dastur "Menejment" kafedrasining 2025 yil " "sentabrdagi - son majlisida ko'rib chiqilgan.

"Menejment" kafedrasini
mudiri

i.f.d., prof. Ismailov A.M.

1. Kirish

Mamlakatimizda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari mutaxassislarning kasbiy mahoratini ko'tarish va ilmiy darajali kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Mazkur dasturda 08.00.13-"Menejment" ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturada o'qishga qabul imtihoni va suxbat o'tkazish tartibi va uni baholash tizimiga oid masalalar yoritilgan. Ushbu dastur Toshkent arxitektura-qurilish universitetiga 08.00.13-"Menejment" ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish uchun xujjat topshiruvchi talabgorlar va qabul komissiyasi a'zolari uchun mo'ljallangan.

2. Kirish imtixonining maqsad va vazifalari

Ushbu dastur 08.00.13-"Menejment" ilmiy ixtisosligi pasporti asosida ishlab chiqildi.

Kirish imtixonining maqsadi stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish talabgorlarining (bundan keyin talabgorlar) tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularning doktoranturada o'qish uchun qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq keyingi ta'lim olish qobiliyatini baholashdan iborat.

Dasturning maqsadi - kadrlarga zamonaviy talablarni ko'zda tutib, doktoranturada o'z dissertatsiya ishini himoya qiluvchilarning menejment, ijtimoiy menejment, uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruvi, uy-joy fondini boshqarish kurslari bo'yicha bilimlarini ob'ektiv aniqlash va baholashdan iborat.

Mazkur kirish imtihonlar Dasturiga quyidagi fanlar kiradi: Menejment, personalni boshqarish, davlat menejmenti, ijtimoiy menejment, huquqiy menejment, inson resurslarini boshqarish, innovatsion menejment, halqaro menejment, uy-joy kommunal xo'jaligi boshqaruvi, uy-joy fondini boshqarish.

3. Talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kirish imtihonlari dasturiga doktoranturada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha 08.00.13-"Menejment" ilmiy mutaxassisligi bo'yicha mutaxassis yoki magistr o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy savollar kiritilgan.

Talabgor ilmiy mutaxassislik sohasidagi asosiy nazariy ma'lumotlarni bilishi, ushbu ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishini, berilgan muammolarni hal qilish usullarini bilishi va terminologiyani o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

I - qism

Tayanch doktoranturaga kirish imtixonini tashkil qilish

4. Kirish imtihoni shakli va davomiyligi

Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni 4 ta savoldan iborat bo'lib, dastlabki 3 ta savol yozma shaklda, 4-savol og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi.

1-3-savollar bo'yicha talabgorlarga yozma javob tayyorlash (yozish) uchun 90 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt beriladi.

4-savol (og'zaki shaklda)

Talabgorga 10-15 daqiqa tayyorlanish uchun vaqt beriladi, javobni imtihon komissiyasi a'zolari tinglaydi.

Savol: Siz tanlagan ilmiy yo'nalish bo'yicha dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqing: mavzuning dolzarbligi, maqsadi, asosiy vazifalari, tadqiqot metodlari va kutilayotgan ilmiy natijalarini qisqacha bayon qiling.

5. Baholash mezon

Kirish imtihonining natijasi 100 ballik tizimda baholanadi. 1-3-savollar uchun yozma javoblar, 4-savol uchun og'zaki javob baholanadi. Har bir savol maksimal 25 ball bilan quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1-3-savollar uchun yozma javoblarni baholash mezon

Mezon	Ballar miqdori
Javob to'liq, izchil va mantiqiy, mavzu chuqur yoritilgan, savollarga aniq javob berilgan	25
Xatolar bilan, lekin asosiy qism to'g'ri va tushunarli yoritilgan	15
Mavzuning faqat asosiy qismi qisman yoritilgan, to'liq emas	10
To'liq bo'lmagan, jiddiy xatolar bor	5
Javob tayyorlanmagan yoki noto'g'ri	0

4-savol uchun og'zaki suhbatni baholash mezon

Ko'rsatkichlar	Tavsifi	Ball
Mavzuning dolzarbligi	Tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan	5 ball
Maqsad va vazifalar	Maqsad va vazifalar aniq va mantiqan bog'langan	5 ball
Tadqiqot metodlari	Ilmiy usullar to'g'ri tanlangan va izohlangan	5 ball
Kutilayotgan natijalar	Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat ko'rsatib berilgan	5 ball
Mantiqiylik va nutq madaniyati	Javob izchil, tushunarli va ilmiy uslubda ifodalangan	5 ball

6. Yakuniy ballar teng bo'lganda ustunlik berish tartibi

Agar stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha bir nechta talabgorlarga qo'yilgan yakuniy ballar teng bo'lsa, quyidagi ustunliklar qo'llaniladi:

a) Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktorantura uchun:

- magistraturani a'lo baholar bilan tamomlaganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;

- ilmiy maqolalari, jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganlarga.

b) Doktorantura uchun:

- 5 yildan ortiq ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- monografiyaga ega bo'lganlarga (ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun);
- dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli ilmiy jurnallarda, jumladan xorijiy jurnallarda ko'p miqdorda ilmiy maqolalar chop etganlarga;
- dissertatsiya tadqiqotining 50 foizdan ortiq qismini bajarganlarga.

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonining bo'limlari va mavzulari ro'yxati

1. "Menejment" fanining predmeti, mazmuni va vazifalari

"Menejment", "Menejer" va "Biznesmen" tushunchalarining mohiyati. Fanning predmeti va tadqiqot usullari. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari. Menejment asoslarini o'rganishning dolzarbligi. Menejment konsepsiyalari va ularning asoschilari. Boshqaruv ilmining o'ziga xos xususiyatlari. Boshqaruvning kelajakka yo'naltirilganligi.

Boshqarishda sifat o'zgarishining ob'ektiv zarurati. Menejmentning boshqa fan sohalari bilan aloqadorligi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida menejment rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

2. Boshqaruv tafakkurining evolyusiyasi

Boshqaruvning qadimiy amaliyoti. Qadimiy va zamonaviy tashkilotlarni taqqoslash. Menejmentning fan sifatida shakllanishi. Menejment nazariyasi asoschilari: F.Teylor, G.Ford, F.Gilbert L.Gilbert G.Emerson, A.Fayol va boshqalar. Boshqaruvga ilmiy yondashuv jarayonli, vaziyatli, tizimli, ilmiy, majmuaviy, miqdoriy va boshqalar.

Turli maktablarni ajratish asosidagi yondashuvlar.

Ilmiy boshqaruv (1985 - 1920).

Boshqaruvda klassik yoki ma'muriy maktab (1920-1950).

Insoniy munosabatlar maktabi (1930-1950).

Boshqaruv fani yoki miqdoriy yondashuv (1950-hozirgi vaqtgacha).

Axloq fanlarining rivojlanish maktabi. Operatsiyalar tadqiqoti va modellar. Miqdoriy yondashuvning ta'siri.

Iqtisodiyotni boshqarish tizimining rivojlanishi. Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi, uning shakllanish bosqichlari. So'nggi yillarda boshqarish nazariyasi va amaliyotidagi o'zgarishlar. Turli mulkchilik shakllari va raqobatchilik sharoitida menejment.

"Harbiy kommunizm" va yangi iqtisodiy siyosat davrida boshqarish mexanizmi. 60-yillarda boshqarishni tashkil etishning takomillashtirilishi.

So'nggi yillarda boshqarish nazariyasi va tajribasidagi o'zgarishlar. Bozor munosabatlariga o'tish va turli mulkchilik shakllari sharoitida boshqarish tizimi va tajribasini qaytadan tashkil etishda kompleks usullar. Turli mulkchilik shakllari va raqobat sharoitida zamonaviy boshqaruv. O'zbekistonda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi.

3. Menejment qonunlari va tamoyillari

Umumiy falsafiy dialektik qonunlar. Boshqarish tizimida bozor qonunlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejment qonunlari va tamoyillarini o'rganishning ahamiyati. Boshqarish va ishlab chiqarishning mosligi qonuni. Boshqarish funksiyalarini markazlashtirishning nisbiy optimalligi qonuni. Boshqarish qonunlarining menejment amaliyotida qo'llanilishi. Menejment tamoyillari. Menejment tamoyillarining mohiyati.

4. Menejmenting tashkiliy tuzilishi

Boshqarishning tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha. Boshqarish tashkiliy tuzilishining turlari, ularning afzalliklari va kamchiliklari.

Chiziqli tuzilma, funksional tuzilma, chiziqli-shtabli tuzilma, chiziqli-funksional tuzilma, matritsa tuzilmasi, xizmatlar tuzilmasi, divizional tuzilma, loyihali tuzilma, brigadali tuzilma, maqsadli tuzilma, iste'molchiga mo'ljallangan tuzilma, mintaqaviy tuzilmalar. Byurokratik tashkiliy tuzilma. Maks Veberning byurokratiya haqidagi nazariyasi. Ratsional byurokratiya ta'riflari.

Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini loyihalashtirish. Tashkiliy loyihalashtirish bosqichlari. Byurokratiyaning salbiy ta'riflari. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida boshqarishning tashkiliy tuzilishini isloh qilish va rivojlantirish.

Boshqaruv faoliyati yangi shakllarining tashkil topishi va ularning samaradorligi. Davlat boshqaruvi va xo'jalik tuzilmalarini boshqarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi Qonunida yangi tashkiliy tuzilmalar yaratishning aks ettirilishi. Mul'chilik shakllari va korxonalarining turli-tumanligi. Mustaqil xo'jalik tuzilmalarining shakllanishi. Davlat boshqaruv organlarining tuzilishi va "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy -hududiy tuzilishi masalalarining hal qilish tartibi to'g'risida" Qonuni. Boshqaruv yangi tuzilmalarini shakllantirish va faoliyatiga bozorning ta'sir etishi.

5. Menejment usullari

Menejment usullari haqida tushuncha. Menejment usullarining turlari. Boshqarishning iqtisodiy usuli-bozor iqtisodi xo'jaligining samarali yuritish asoslari. Tashkiliy-farmoyish usuli, uning mohiyati va tavsifi. Takiliy-farmoyish usulining boshqaruvdagi roli. Tashkiliy-farmoyish usulining tabaqalanishi. Menejmentning ijtimoiy-ruhiy usullari, ularning turlari va mazmuni. Menejmentning axloqiy va ruhiy jihatlari. Menejmentning huquqiy usullari. Bozor iqtisodining rivojlanishi va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda menejment kompleks usullarining ahamiyati. Zamonaviy menejmentning huquqiy usullari. Menejment faoliyatining samaradorligini oshirishda menejment usullarining ahamiyati.

6. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish

Boshqaruv qarorlarining mohiyati va xususiyatlari. Boshqaruv qarorlarining turlari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish bosqichlari. Boshqaruv qarorlariga qo'yiladigan talablar.

Boshqaruv qarorlarini optimallashtirish usullari. Optimal boshqarish va bajarishni nazorat etishda menejmentning o'rni. Qaror qabul qilishda axborot

texnologiyalari. Qarorlar qabul qilishni asoslashda axborot texnologiyalarining ahamiyati.

7. Menejer faoliyatini tashkil etish

Menejment tizimida menejer. Bozor sharoitida kadrlar siyosati. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish tamoyillari. Menejment mehnatining mazmuni, xarakteri va xususiyati. Zamonaviy menejer liderning kasb-malaka modeli. Ishlab chiqarishning turli sharoitlarida menejmentning ish uslubi. Boshqarish psixologiyasi. Yapon va Amerika usullari. Zamonaviy bosqichda menejer etikasi va menejer madaniyati. Menejerlarni tanlash, baholash va attestatsiyadan o'tkazish yo'llari. Menejerlar faoliyatini baholashda reyting tizimi. O'zbekistonda menejerlarni tayyorlash va o'qitish usullari.

8. Menejment tizimida tadbirkorlik va biznes

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Korxona-bozor iqtisodiyoti tizimi sifatida. Iqtisodiyotning boshqarish tizimi va tadbirkorlik. Menejment tizimi va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari.

Tadbirkorlik turlari. Biznes-reja, uning mohiyati va tuzilishi.

Biznes-rejaning mohiyati va maksadi. Bozor sharoitida korxonalarda biznes rejaning mohiyati. Biznes-rejani tayyorlash va undan foydalanish. Biznes-rejaning tuzilishi: ishlab chiqarish, marketing, menejment, tavakkalchilik turlari, moliyaviy reja va boshqalar. Biznes-rejaning yakunlovchi bo'limi.

Biznes reja tuzishda qo'llaniladigan hujjatlarining lari. Rezyume, mahsulot, xizmat turlari, tovar yetkaziladigan bozor, marketing strategiyasi, ishlab chiqarish dasturi, korxonaning tashkiliy shakli, moliyaviy reja. Biznes-reja bajarilishi ustidan nazorat.

9. Personalni boshqarish

Korxona va tashkilotlarni shakllantirishda inson omili. "Personal" tushunchasining mazmuni. Personalni boshqarish tizimlari. Inson resurslarini boshqarish funksiyasining rivojlanishi. Personalni boshqarish tamoyillari va usullari.

Kadrlarni rejalashtirish mohiyati, maqsad va vazifalari. Korxona va tashkilotlardagi xizmat martabasini boshqarish. Martaba bosqichlari. Xizmat martabasini boshqarish. Korxona va tashkilotlarda personal xulq-atvorini boshqarish.

Kadrlarga oid yangiliklarning mohiyati. Personal boshqaruvida mehnat munosabatlari etikasi. Mehnat munosabatlarini tashkil etishda shaxslararo munosabatlar. Salomlashish, taqdim qilish va ishbilarmon kishining tashqi qiyofasi. Ishga oid suhbat yuritish va telefonda gaplashish odobi. Tanqid qilish va tanqidni qabul qilish qoidalar. Notiqlik san'ati asoslari.

10. Davlat menejmenti

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvining o'rni. Bozor munosabatlari shakllanish davrida boshqaruv vazifalarining o'zgarishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruvin tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va ijroiya hokimiyati. Oliy qonunchilik hokimiyati. Mahalliy xokimiyatlar va ularning vazifalari. Davlat boshqaruvin takomillashtirish zarurati.

11. Ijtimoiy menejment

Bozor sharoitida ijtimoiy siyosat. Ijtimoiy dasturlar va ularning menejmentdagi o'ri. Aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozori - ijtimoiy boshqaruv ob'ekti. Jamoaning ijtimoiy rivojlanishi. Inson xulqi omillari tizimi. Guruhlar va ularning ahamiyatlari. Xotom tajribalari. Menejment nazariyasiga Xotom tajribasi ta'siri. Ijtimoiy tadqiqotlar natijalarining menejmentda qo'llanilishi. Menejmentda inson omili. hozirgi sharoitda ijtimoiy muammolarni hal etishning xorijiy tajribalari.

12. Huquqiy menejment

Bozor iqtisodiyoti sharoitida menejmentning huquqiy asoslari. Menejmentning huquqiy muammolari. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida"gi va "Mulkchilik shakllari to'g'risida"gi qonunlarining menejmentdagi ahamiyati. Korxonada huquqiy menejmentning o'ri. Korxona mehnat jamoasini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar. Korxonaning moliyaviy resurslarini huquqiy boshqarish. Huquqiy menejmentning xorijiy tajribasi.

13. Menejment samaradorligi

Boshqarish samaradorligi-iqtisodiy kategoriya sifatida. Boshqarish samaradorligini oshirish-bozor iqtisodiyotining muhim sharti.

Iqtisodiy va ijtimoiy boshqaruv samaradorligi tushunchalari. Boshqaruvning iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlari.

Boshqaruv samaradorligini oshirish omillari va rervlari. Boshqaruv samaradorligini baholash usullari. Boshqaruv samaradorligini oshirish loyihalarini iqtisodiy asoslash.

14. Inson resurslari boshqaruvining shakllanish asoslari

Inson resurslari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Inson resurslarining shakllanish omillari. Rivojlangan xorijiy davlatlarda inson resurslarining shakllanish xususiyatlari. Ishchi kuchini takror ishlab chiqarish. Inson resurslari boshqaruvini bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlantirishning zarurligi. Inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. G'arbiy Yevropa davlatlarida inson resurslari boshqaruvining tashkil etishning tamoyillari va tajribasi. O'zbekistonda inson resurslarini tashkil etish konsepsiyasi.

15. Ijtimoiy menejmentning rivojlanishi va uning ilmiy maktablari

Menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi. Rivojlanishning turli tarixiy bosqichlari va evolyusiyasi. Inson tarixidagi beshta boshqaruv inqilobining mohiyati.

Menejmentning ilmiy maktablari. Klassik boshqaruv maktabi. Klassik boshqaruv maktabi namoyandalari F. Teylor, A. Fayol, G. Emerson, L. Urvik, M. Veber, G. Ford tamoyillari.

"Inson munosabatlari maktabi namoyondalari E. Meyo, K. Ardjeris, F. Xersberg, D. Mak-Gregor, R. Bleyk va boshqalarning mehnatni mukammallashtirish usullari.

Boshqaruvning empirik maktabi vakillari P. Druker, R. Devis, L. Nyumen, D. Millerning boshqaruv nazariyalari.

Ijtimoiy tizimlar maktabi vakillari D. Marg, G. Saymon, A. Etsioni

nazariyalari. "Yangi maktab" namoyandalari R. Ansoff, S. Vir, L. Bertalanfi, R. Kalman, L. Kleyn, R. Lyus, D. Forrester boshqaruv nazariyasidagi yo'nalishlarning rivojlanishi. Ijtimoiy menejment manbalari. Inson munosabatlari. Ijtimoiy tizim. Inson resurslari menejmenti.

16. XX asr oxiri XXI asr boshqaruv madaniyati

Zamonaviy boshqaruv madaniyati. Boshqaruv madaniyati elementlari. XXI asrda dunyodagi global xarakterdagi muammolar. Dunyodagi yangi milliy madaniyatlar.

XXI asr talabiga javob beradigan boshqaruv modeli. Yaponiyada boshqaruv tizimi va boshqaruv madaniyatining shakllanishi. Yapon boshqaruv modeli va boshqaruv madaniyatining asosiy jihatlari.

Ijtimoiy menejment madaniyatining shakllanishi. Inson resursining ochilishi. Boshqaruv madaniyatining bosh mazmuni. Boshqaruv tizimini qurish, ichki va tashqi muhit ta'sirlari.

Tashkil etish madaniyati konsepsiyasi. Inqiroz holatlari va ularga to'g'ri ta'sir etish.

Ijtimoiy boshqarishni shakllantirishning umumiy tamoyillari. Boshqaruvning aqliy tizimlari va madaniyati.

17. Strategik boshqarish jarayoni

Strategiya tushunchasi, uning mazmuni. Strategiyaning rejadani farqi. Kompaniyani boshqarish vazifalari, ularning asosiy turlari.

Kompaniya strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha menejerlarning vazifalari. Kompaniya missiyasi va strategik qarashlarini belgilash. Kompaniya strategiyasining asosiy savollari. Strategik boshqarish maqsadi. Maqsadlarning turlari: qisqa muddatli, uzoq muddatli, moliyaviy, strategik. Strategiyaning belgilashga ta'sir etuvchi omillar: ichki omillar, tashqi omillar.

Strategiyaga aniqliklar, o'zgartirishlar kiritish. Strategiyaning baholash uchun qo'yiladigan savollar. Strategiyaning amalga oshirish bo'yicha ma'muriyatning vazifalari. Strategik boshqarishning besh vazifasi. Strategiyaning amalga oshirishda ijrochi direktorning o'ri. Kompaniya strategiyasini belgilashda prezidentning o'ri va vazifalari. Vitse-prezidentlarning vazifalari. Turli darajadagi menejerlar va ularning vazifalari. Rejalashtirish bo'limi va uning vazifalari.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish, uni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish sharoitlarida strategik menejmentni rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

18. Diversifikatsiyaning korporativ strategiyalari

Kompaniyaning rivojlanish bosqichlari. Boshlang'ich bosqich belgilari. Ixtisoslashuvi. Geografik ekspansiya bosqichi. Kompaniyani yangi tarmoqqa diversifikatsiyalash. Mahalliy bozordan xududiy-milliy va xalqaro bozorlarga chiqish. Tor ixtisoslashish va uning qulayliklari. Tor ixtisoslashishning kamchiliklari va xatarli jihatlari. Diversifikatsiyalashga undovchi omillar. Kompaniyaning o'sish va rivojlanish bosqichlari.

Diversifikatsiya qo'llashning tub maqsadi. Diversifikatsiyalanish uchun tarmoq tanlash mezonlari. Jozibadorlik mezonlari. Kirish xarajatlari mezonlari. Qo'shimcha manfaatlar mezonlari. Diversifikatsiyalash usullari. Resurslarni qayta

taqsimlash usuli. Vertikal integratsiya usuli. Diversifikatsiyalash usullarining ijobiy va salbiy tomonlari.

19. Tarmoq jozibadorligini aniqlash va korporativ strategiyani ishlab chiqish

Diversifikatsiyalangan kompaniya strategiyasini baholash. Tarmoq jozibadorligini baholash usullari. Diversifikatsiyalangan kompaniyani tasniflash. Strategik moslik tahlili. Firmalarni investitsiya qobiliyatiga ko'ra tabaqalashtirish. Diversifikatsiyalangan korporatsiya strategiyasini ishlab chiqish. Korporatsiya strategiyasini baholash bosqichlari. Korporativ strategiyani ishlab chiqish. Ishchanlik faolligi mezonlari.

Tarmoq jozibadorligini baholash yo'nalishlari. Xo'jalik bo'linmalarining kompaniya biznesiga mos kelish darajasi. Kompaniya portfehning korxonalar, tarmoqlar bo'yicha tahlili. Tahlil natijalariga ko'ra tashkiliy xulosalar yasash. Kompaniya xo'jalik portfelini qayta ko'rib chiqish. Biznes sohasiga kirish strategiyasi. Xarid qilish. Yangi ichki korxona. Hamkorlikdagi tadbirkorlik. Strategiyani tanlashga bog'liq omillar. Kompaniyaning bozordan ketish strategiyasini tanlash.

20. Innovatsion menejmentning funksiyalari va usullari

Innovatsion faoliyatni boshqarish funksiyalarining tizimi. Korxona yoki tashkilot innovatsion faoliyatining maqsadlari. Innovatsion menejment maqsadlarining umumiy tasnifi. Rejalashtirish innovatsion menejmentning maxsus funksiyasi sifatida. Innovatsion menejmentda rejalashtirish jarayonining bosqichlari. Ishlab chiqarishning kelgusidagi yangilanishi va takomillashtirilishi uchun xaziralarni izlash. Innovatsion faoliyatni tashkil etish. Tashkiliy tuzilmalarni shakllantirish tashkil etish funksiyasining muhim vazifasi sifatida. Innovatsion menejmentda kommunikatsiyalar jarayoni. Innovatsion menejmentda kommunikatsiyalarning turlari. Kichik guruhlarda dastlabki axborotni shakllantirish jarayoni. Motivatsiyani boshqarish. Motivatsiyaning jarayonli modeli. Muvofiqlashtirish innovatsion menejmentning markaziy funksiyasi sifatida. Muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish bosqichlari. Innovatsion menejmentda nazorat. Innovatsion faoliyatda qo'llaniladigan nazorat turlari. Innovatsion faoliyatni nazorat qilish usullari. Innovatsion menejmentda boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Boshqaruv qarorlarining turlari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining bosqichlari. Innovatsiyalarni prognozlash usullari.

21. Innovatsion menejmentning tashkiliy shakllari

Tashkilot innovatsion faoliyatning sub'ekti va jarayoni sifatida. Innovatsion tashkilotlarning xususiyatlari. Innovatsion korxona korxona faoliyatining sohasi. Tashkilotlarning innovatsiyalar hayotiylik davrining bosqichlari bilan bog'liqligi. Ilmiy-texnik va innovatsion soha tashkilotlarining tasnifi. Zamonaviy innovatsion firmaning xususiyatlari. Intellektual Intellektual o'zini-o'zi boshqaruvchi uyushma. Innovatsion firmaning shakllanishida integratsiya va diversifikatsiyaning roli. Diversifikatsiyalashmagan kompaniyaning korporativ strategiyalari. Firmani diversifikatsiyalash strategiyalarining oltita turi. Konsorsiumlar firmalararo integratsiyaning istiqbolli turi sifatida. Innovatsion faoliyatda moliyaviy-sanoat guruhlarining roli. Innovatsion markazlarning iqtisodiyot samaradorligining

oshishiga ko'rsatadigan ta'siri. Texnoparklar va ular tomonidan hal etiladigan vazifalar. Innovatsion infratuzilma va uning innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi roli.

22. Milliy innovatsion tizimlar va innovatsion sohaning davlat tomonidantartibga solinishi

Milliy innovatsion tizimlar strukturasi va uning asosiy parametrlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning innovatsion tizimlarini tashkil etish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida loyatsion tizim. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning regulyatorlari tizimida innovatsion siyosat. Innovatsion sohada davlatning funksiyalari. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bevosita va bilvosita usullari. Davlatning innovatsion siyosati. Ilm-fan va texnologiyalar sohasida davlatning ustuvor yo'nalishlari. Ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasi siyosatining asoslari. Innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi mintaqaviy loyihalar. O'zbekiston Respublikasida yangi innovatsion mexanizm. Innovatsion dasturlar. Intellektual mulk va uning davlat tomonidan himoya qilinishi. Intellektual mulkni himoya qilishning asosiy turlari: patentlar, mualliflik huquqini beruvchi guvohnomalar va tovar belgilari. Innovatsion faoliyatning huquqiy tartibga solinishi va innovatsiyalarning himoya qilinishi. O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni himoya qilish qonunchiligini rivojlantirish. Mintaqalarning innovatsion rivojlanish dasturlari bilan investitsion rivojlanish dasturlari o'rtasidagi bog'liqlik. Innovatsion tashkilotlarga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar.

23. Tavakkalchilikni boshqarishni takomillashtirish

Korxonada tavakkalchilikka ega loyihalarni boshqarish bo'yicha ishlarni tashkil etish modeli. Tavakkalchilikni boshqarish jarayoni. Tavakkalchilikni boshqarish tizimini tashkil etish va rivojlantirish. Korxona yoki tashkilotda tavakkalchilikni boshqarish tizimining boshqa tizimlar bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash. Amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan har qanday loyihalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavf-xatar omillarini kamaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi. Turli tavakkalchilik omillarini aniqlash va baholash ko'rsatkichlari. Korxonalarda tavakkalchilikni boshqarish tizimiga jalb etiladigan xodimlar bilan samarali ishlash usullari. Korxona darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni. Korxona darajasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tavakkalchilikning o'rni. Korxonada tavakkalchilikni boshqarish tizimchasining tuzilishi. Kutiladigan tavakkalchiliklarni aniqlashtirish. Tavakkalchilikni tahlil qilish va baholash.

24. Xalqaro menejmentni strategik rejalashtirish

Xalqaro firmalarni strategik rejalashtirish. Xalqaro faoliyatda strategik qaror qabul qilish. Xalqaro o'zaro tasvirlarni qamrab qaror qabul qilish. Firma strategiyasining bosh maqsadini bosqichma-bosqich tatbiq etish. Strategik rejalashtirishning amaliyoti. Strategiyani tatbiq etish. Xalqaro firmalarda strategik rejalashtirishni tashkil etish. Boshqarish tuzilmasini yaratish. Tuzilmalarni ishlatish qoidalarini ishlab chiqish. Formal va noformal tashkiliy madaniyat. Strategik rejalashtirish madaniyati. Xalqaro firmalarda strategik rejalashtirishda o'ziga xos

madaniyat. Xalqaro va global raqobatni taqqoslash. Nomarkazlashtirish sharoitida gibril strategiya. Strategik rejalashtirish tuzilmalari va boshqa koordinatsiya mexanizmlari.

25. Raqamli transformatsiya sharoitida qurilish sohasini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari

Qurilishda raqamlashtirishning dolzarbligi. Raqamli boshqaruvning nazariy asoslari. BIM, IoT, AI texnologiyalarining qurilish boshqaruvida qo'llanilishi. Dunyodagi eng yaxshi raqamli boshqaruv tajribalari. Qurilish sohasida raqamli transformatsiyaning muammolari va istiqbollari

26. Qurilish va uy-kommuna xo'jaligida investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi

Investitsion loyihalar tushunchasi va ularning baholash usullari. Investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash usullari (NPV, IRR, PI). Investitsion loyihalar xavflari va ularni minimallashtirish yo'llari. Qurilishdagi investitsion loyihalarga davlat yordami. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz loyihalarning tahlili

27. Ko'chmas mulk obyektlarining hayotiy tsiklini boshqarish konsepsiyalari

Bino va inshootlarning hayotiy tsikli bosqichlari. Hayotiy tsiklini boshqarish modellari (BIM, FM-sistemalar), Hayotiy tsiklini boshqarishda iqtisodiy ekologik jihatlar. LCC (Life Cycle Costing) usulining qo'llanilishi.

28. Qurilish va uy-kommuna xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik (DXSh)

DXShning nazariy asoslari va turlari. DXShning huquqiy va institutsional jihatlar. Qurilish loyihalarini DXSh orqali moliyalashtirish. Uy-kommuna xo'jaligida DXShning xalqaro tajribasi.

29. Aqlli shahar konsepsiyasi doirasida qurilish va uy-kommuna xo'jaligini boshqarish

"Aqlli shahar konsepsiyasining asosiy elementlari. Uy-kommuna xo'jaligini boshqarish uchun raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, AI). Barqaror rivojlanishning ekologik va ijtimoiy jihatlar. Aqlli shahar yechimlarini joriy etish bo'yicha tajribalar. Uy-kommuna xo'jaligida aqlli texnologiyalarni integratsiya qilish muammolari.

30. Qurilish kompaniyalari va uy-kommuna xo'jaligi korxonalarida moliyaviy boshqaruv

Qurilish kompaniyalari uchun moliyaviy modellar. Moliyalashtirish manbalari va investitsiya strategiyalari. Qurilishda xarajatlarni boshqarish va narx belgilash. Budjetlashtirish va moliyaviy oqimlarni nazorat qilish. Qurilish korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish.

31. Qurilish loyihalarini boshqarishda raqamli texnologiyalar

Qurilish loyihalarini boshqarish uchun asosiy raqamli vositalar (BIM, ERP, CRM). Qurilishda blokcheyn va aqlli kontraktlarning qo'llanilishi. Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining qurilish jarayonlarida prognozlash imkoniyatlari. Uy-kommuna xo'jaligi obyektlarini boshqarish va monitoring qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari. Qurilish loyihalarining raqamlashtirilishidagi

muammolar va istiqbollari

32. Qurilish va uy-kommuna xo'jaligida tavakkalchilikni boshqarish

Qurilish sohasidagi tavakkalchilik turlari. Tavakkalchilikni baholash va minimallashtirish usullari. Huquqiy va moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish mexanizmlari.

33. Uy-joy fondini boshqarish: zamonaviy muammolar va rivojlanish strategiyalari

Uy-joy fondi tushunchasi va uning tuzilishi. Eskirgan va avariya holatidagi uy-joy fondi muammolari. Uy-joy fondini boshqarishning zamonaviy modellari (boshqaruv kompaniyalari, konsessiyalar). Uy-joy fondini boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalar. Davlat siyosati va uy-joy fondini rivojlantirish strategiyalari.

34. Uy-joy fondini boshqarishda davlat siyosati: huquqiy va iqtisodiy jihatlar

Uy-joy fondini boshqarish bo'yicha qonunchilik asoslari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining uy-joy bilan ta'minlanish siyosati. Uy-joy sektorida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari. Xususiylashtirish natijalari va uning uy-joy fondiga ta'siri. Kapital ta'mirlash va avariya holatidagi uy-joylarni ko'chirish bo'yicha davlat dasturlari

35. Ijara uy-joy bozorining rivojlanishi va uning tartibga solish mexanizmlari

Ijara uy-joy bozori: tuzilishi va tendensiyalari. Ijara uy-joy bozori uchun davlat tartibga solish siyosati. Xalqaro tajriba: ijtimoiy ijara uy-joy dasturlari. O'zbekiston va MDH davlatlarida ijara sektori rivojlanishining muammolari va istiqbollari. Investitsion modellar va ijara uy-joy bozori rivojlanishi uchun mexanizmlar

II qism

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga o'qishga qabul qilish suxbatini tashkil qilish

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga kirish imtihonlari to'liq suhbat (og'zaki) shaklida o'tkaziladi. Suhbat davomiyligi 30 daqiqagacha bo'lib, komissiya a'zolari tomonidan savol-javob tarzida olib boriladi.

Doktoranturaga qabul qilish suxbatini tashkil etish tartibi

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash uchun doktoranturaga kirishda topshiriladigan xujjatlar ro'yxatidagi "tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi" da keltiriladigan ma'lumotlar ro'yxati.

Rejalashtirilgan dissertatsiya mavzusining nomi 08.00.13 – "Menejment" mutaxassislik pasportiga muvofiq yo'nalishlarga mos kelishi kerak. Batafsil reja quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ilmiy muammo shakllantiriladi, uning dolzarbligi va ishning gipotezasi asoslanadi;

- 5 yildan ortiq bo'lmagan manbalar asosida o'rganilgan materiallarga

asoslangan analoglar (dastlabki adabiyotlar tahlili) taqdim etiladi;

- tadqiqotning maqsadi, vazifalari va muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan echimlar shakllantiriladi;
- ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos (kafedra, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot instituti, boshqa muassasalar), uning tadqiqotning talab qilinadigan hajmlari va ob'ektlarini taqdim etish qobiliyati ko'rsatilgan;
- tadqiqot ob'ekti, predmeti va rejalashtirilgan tadqiqotning o'ziga xos usullari va usullari ko'rsatiladi;
- kutilayotgan natijalar, qo'llash va amalga oshirishning mumkin bo'lgan doirasi (shakllar, bosqichlar, darajalar) ko'rsatilgan;
- ishni bajarishning kalendar muddatlari ko'rsatilgan (aniqrog'i, kalendar davrining oxiri va o'quv yoki tanlovni yakunlash uchun rejalashtirilgan dissertatsiya kengashiga taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosqichlar).

Stajyor-tadqiqotchilikka qabul qilish suhbatini tashkil etish tartibi

Suhbatning asosiy maqsadi — talabgorning tanlangan ixtisoslik bo'yicha ilmiy salohiyati, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyati va motivatsiyasini aniqlash.

Tanlangan ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar:

Asosiy ilmiy tushunchalar, tadqiqot uslublari, sohaga oid zamonaviy ilmiy yutuqlarni bilish darajasi.

Tadqiqot mavzusi va dolzarbligi:

Talabgor tomonidan taklif etilgan dissertatsiya mavzusi dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.

Ilmiy tayyorgarlik:

Avvalgi ilmiy ishlari (maqolalar, tezislari, patentlar va b.), konferensiyalardagi ishtiroki, ilmiy qiziqish doirasi.

Metodologik yondashuvlar:

Talabgorning tanlangan mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullarini qo'llay olish qobiliyati.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni - <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" - <https://lex.uz/docs/-4545884>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.01.2022 yildagi PF-54-son "Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - <https://lex.uz/docs/-5834017>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son O'zbekiston 2030" strategiyasi to'g'risida"

<https://lex.uz/ru/docs/6600413>

6. 2017-yil 24-apreldagi PQ-2922-son "2017-2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori - <https://lex.uz/ru/docs/-3177393>
7. 2021-yil PQ-5152-son 19-iyundagi "Ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/docs/-5464157>
8. 2020-yil 17-martdagi PQ-4642-son "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4767514>
9. 2020-yil 27-noyabrda PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasining 2021- 2025-yillarda qurilish tarmog'ini modernizatsiyalash, jadal va innovatsion rivojlanishi strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari <https://www.lex.uz/uz/docs/-5130468>
10. 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori - <https://lex.uz/en/docs/-3723561>
11. 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori <https://lex.uz/docs/-4351738>
12. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
13. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.
14. Nurimbetov R.I. "Korporativ boshqaruv". O'quv qo'llanma. Arxitektura qurilish integratsiya va innovatsiya Markazi ning bosmaxonasi. Toshkent, 2012
15. Nurimbetov R.I. "Loyihalar tahlili va ularni boshqarish". O'quv qo'llanma. Arxitektura qurilish integratsiya va innovatsiya Markazi ning bosmaxonasi. Toshkent, 2012
16. Nurimbetov R.I. Qurilish industriyasi infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi. Ilmiy-uslubiy qo'llanma. Toshkent arxitektura-qurilish instituti, Toshkent, 2017 yil.
17. Yo'ldoshev N.Q. "Menejmentga kirish". Darslik. T.: TDIU, 2021
18. Yusupova D.T. "Boshqaruv tafakkuri tarixi". O'quv qo'llanma.- .: 2021
19. Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. -T.: TDIU, 2013. -230 b.
20. Shonazarova G.B. Ekologik menejment. Darslik.-T.: 2021 y.
21. Юлдошев Н.К., Набоков В.И. «Основы менеджмента» Учебник. Екатеринбург, 2021.-252 с.
22. Ансофф И. Стратегический менеджмент. СПб.: Питер, 2009.